



**YOSHLAR ORASIDA HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISHDA
PREVENTIV CHORALARNING TA‘LIMIIY AHAMIYATI
(MILLIIY VA XALQARO TAJRIBA MISOLIDA)**

Ibragimov Shuxrat Isroilovich

Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Anotatsiya. Huquqiy tizim jamiyatda amal qiluvchi normativ tizimlar ichidagi eng murakkab hodisadir. Huquqni yaratish, uni insonlar ongiga singdirish, so‘ngra, uning talablarini huquqiy munosabatlarning ishtirokchilari fe‘l-atvori, xatti-harakati mazmuniga ko‘chirish va, pirovardida, qonun chiqaruvchi organ ko‘zlagan maqsad hamda samaraga erishish serqirra, uzoq davom etadigan mashaqqatli jarayon ekanligi ayon. Milliy va xalqaro tajribalar asosida prevensiv choralar ko‘rib chiqilib, ta‘lim jarayonida ularning ahamiyati va natijalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar. Yoshlar, huquqbuzarlik, prevensiya, ta‘lim, milliy tajriba, xalqaro tajriba, ijtimoiy mas‘uliyat, jamiyat, yondashuvlar, samaradorlik.

**EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF PREVENTIVE MEASURES IN
PREVENTING CRIME AMONG YOUTH
(ON THE EXAMPLE OF NATIONAL AND INTERNATIONAL EXPERIENCE)**

Abstract. The legal system is the most complex phenomenon among the normative systems operating in society. It is clear that creating law, instilling it in people's minds, then transferring its requirements to the content of the character, behavior of participants in legal relations and, ultimately, achieving the goal and results set by the law-making body is a complex, long-term, laborious process. Based on national and international experience, preventive measures are considered, and their significance and results in the educational process are highlighted.

Keywords. Youth, crime, prevention, education, national experience, international experience, social responsibility, society, approaches, effectiveness.

**ВОСПИТАТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ПРОФИЛАКТИЧЕСКИХ МЕР В
ПРЕДУПРЕЖДЕНИИ ПРЕСТУПЛЕНИЙ СРЕДИ МОЛОДЕЖИ
(НА ПРИМЕРЕ НАЦИОНАЛЬНОГО И МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА)**

Аннотация. Правовая система представляет собой наиболее сложное явление в рамках нормативных систем, действующих в обществе. Создание закона, внедрение его в сознание людей, перенос его требований на содержание характера и поведения

участников правоотношений и, в конечном итоге, на цель, поставленную законодательным органом и Понятно, что достижение результатов – процесс долгий и трудный. На основе национального и международного опыта рассмотрены профилактические меры, подчеркнута их важность и результаты в образовательном процессе.

Ключевые слова. Молодежь, преступность, профилактика, образование, национальный опыт, международный опыт, социальная ответственность, общество, подходы, эффективность.

Kirish. Yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish dolzarb masala bo‘lib, jamiyatning ijtimoiy barqarorligi va kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega. Huquqbuzarliklar, ayniqsa, yosh avlod o‘rtasida prevensiv choralar, bu nafaqat individual, balki ijtimoiy muammolarni ham keltirib chiqaradi. Yoshlar, o‘z navbatida, jamiyatning kelajagi va iqtisodiy rivojlanishining asosiy kuchidir. Shuning uchun, ularning huquqbuzarliklardan himoya qilish va ularni to‘g‘ri yo‘naltirish masalalari dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, huquqbuzarliklarning ko‘payishi ko‘pincha ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, oilaviy nizolar, va ta‘limdagi kamchiliklar bilan bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, ta‘lim jarayoni yoshlarni huquqbuzarlikdan himoya qilishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Ta‘lim orqali yoshlar ijtimoiy mas‘uliyat, axloqiy qadriyatlar va qonunlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni o‘rganadilar.

Milliy va xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan prevensiv choralar, masalan, ta‘lim dasturlari, ijtimoiy loyihalar va psixologik yordam, huquqbuzarliklarni kamaytirishga yordam beradi. Bunday yondashuvlar, yoshlarni ijtimoiy hayotga faol jalb qilish, ularning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish va huquqiy ongini oshirishga qaratilgan.

Mavzuga oid abiyotlar tahlili: Dunyodagi vaziyatning tobora murakkablashuvi, geosiyosiy o‘yinlarning avj olishi, ma‘naviy, mafkuraviy tajovuzlarning kuchayishi, terrorizm, ekstremizm, giyohvandlik, odam savdosi, korrupsiya, behayolik, zo‘ravonlik, vahshiylik kabi illatlar salbiy ta‘siri ko‘lamining kengayishi huquqbuzarliklar profilaktikasi muammolari bo‘yicha kompleks ilmiy va amaliy tadqiqotlar o‘tkazish, profilaktik ishlarni olib borishning zamonaviy uslubiyotini joriy etish masalasini dolzarblashtiradi.

Ushbu dolzarblikni yer yuzida har yili 437 ming kishining qasddan o‘ldirilayotganligi⁶⁷, birgina odam savdosidan 3 milliondan ortiq kishi jabrlanayotganligi⁶⁸, korrupsiya natijasida rivojlanayotgan davlatlar o‘rtacha 1.26 trillion, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari esa 132 million AQSh dollari miqdorida zarar ko‘rayotganligi⁶⁹, har kuni 1 millionga yaqin shaxs zararli

⁶⁷ Уровен преступности в мире // URL: <https://visasam.ru/emigration/vybor/prestupnost-v-mire.html>

⁶⁸ Odam savdosi – asr muammosi // URL: <http://muslim.uz/index.php/maqolalar/item1767-odam-savdosi-asrmuammosi/>

⁶⁹ Corruption costs developing countries \$1.26 trillion every year - yet half of EMEA think it's acceptable // <https://www.weforum.org/agenda/2019/12/corruption-global-problem-statistics-cost/> (murojaat vaqti: 30.10.2022). ⁴ Уровен преступности в мире // URL: <https://visasam.ru/emigration/vybor/prestupnost-v-mire.html> (murojaat vaqti:

odatlari sabab kiberjinoyatchilikdan jabrlanayotgani kabilar bilan ham asoslash mumkin. Shu boisdan, bugun dunyo davlatlari puxta o‘ylangan profilaktika huquqbuzarliklarning oqibatlarini bartaraf etishdan 10 barobar ko‘p samaraliroq ekanligiga to‘laqonli ishonch hosil qilishmoqda. Bu esa, huquqbuzarliklar profilaktikasini ilmiy, uslubiy, strategik va taktik ta‘minlash masalasini dolzarblashtiradi hamda dissertatsiya tadqiqotlarini olib borish zarurati mavjudligini ko‘rsatadi.

Jahonda taraqqiyot va xavfsizlikka raxna solayotgan xavf-xatar va tahdidlar, avvalo, transmilliy jinoyatlar va yot g‘oyalar ta‘sirining tobora kuchayib borayotganligi ularga barham berish va o‘z vaqtida oldini olish bo‘yicha zamonaviy va samarali tizimni yo‘lga qo‘yish – dunyo mamlakatlarining ilmiy tadqiqot va amaliy faoliyati obyektiga aylangan. Bu borada, huquqbuzarliklar profilaktikasining nazariy asoslarini rivojlantirish, maxsus profilaktika tuzilmalarini shakllantirish, huquqbuzarliklar profilaktikasiga keng jamoatchilikni jalb etish, huquqbuzarliklarning sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, bartaraf etish hamda jamoat xavfsizligini ta‘minlashga yo‘naltirilgan maxsus dasturlarni ishlab chiqish va ijtimoiy hayotga tatbiq etish, huquqbuzarliklar profilaktikasiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, huquqbuzarliklar profilaktikasini strategik va taktik ta‘minlash bilan bog‘liq muammolarning ilmiy asoslangan yechimlarini topishga qaratilgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tahlil va natija. So‘ngi yillarda respublikamizda yoshlar siyosati eng ustuvor vazifalardan biri hisoblanib, davlat darajasiga ko‘tarilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Agar farzandlarimizga to‘g‘ri tarbiya bermasak, har kuni, har daqiqa uni yurish-turishi, kayfiyatidan ogoh bo‘lib turmasak, ularni ilm-u hunarga o‘rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib quyishimiz hech gap emas”⁷⁰ deya ta‘kidlagan fikrlaridan ham yoshlarning huquqiy bilimlarini oshirish, vatanparvar etib tarbiyalash, ular o‘rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish dolzarb masalaga aylanganligini hamda bu boradagi qarashlarga endilikda jiddiy yondashuv ostida qarashimizni anglab olsak bo‘ladi.

Shu o‘rinda huquqni muhofaza qiluvchi targ‘ibot organlari o‘smir yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikka qarshi kurashish emas, balki jinoyatchilikning oldini olish, profilaktik chora-tadbirlar ko‘rishga e‘tiborni kuchaytirdilar. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish va ularning sodir etilishiga sharoit tug‘diruvchi vaziyatlarni bartaraf qilish davlat va jamiyat oldida turgan asosiy muammolardan biri sanaladi. Chunki voyaga yetmagan shaxslarning jinoyat sodir etishlari kelgusida ularning retsidivist jinoyatchi bo‘lish ehtimolini oshiradi hamda bu holat mamlakatning kelajakdagi taraqqiyotiga o‘zining salbiy ta‘sirini o‘tkazadi. Umumiy jinoyatchilikdan farqli ravishda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi mamlakatning kelgusidagi taqdiri bilan bog‘langan bo‘lib, ushbu muammoga bugungi kunda alohida e‘tibor bilan yondoshilmasa uning millat kelajagiga salbiy ta‘siri ortib ketishi mumkin.

⁷⁰ Mirziyoyev Sh.M. Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do‘stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir: Uzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza // Xalqso‘zi. – 2018. – 8 dekabr

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish borasidagi tajriba shuni ko‘rsatadiki, ushbu ijtimoiy salbiy illatga qarshi kurashning ilmiy asoslangan, puxta ishlangan va samarali choralarini qo‘llamasdan turib, unga qarshi kurashda muvaffaqiyatga erishib bo‘lmaydi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining 2010-yil 29-sentyabrdagi “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarlikning profilaktikasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-262-sonli qonuni talablari va mazmun-mohiyatiga e‘tibor beradigan bo‘lsak, voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasiga doir faoliyatning asosiy vazifalari voyaga yetmaganlar nazoratsizligi, qarovsizligi, ular tomonidan huquqbuzarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish, ularga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish; voyaga yetmaganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta‘minlash, voyaga yetmaganlarda qonunga itoatkorlik xulq-atvorini shakllantirish; ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga yetmaganlar va oilalarni ijtimoiy-pedagogik rehabilitatsiya qilish, voyaga yetmaganlarni huquqbuzarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarni sodir qilishga jalb etish hollarini aniqlash va ularga barham berishdan iborat.

Shu bilan birga, “huquqbuzarliklar profilaktikasi”ning “jamoat xavfsizligi”, “jamoat tartibi” tushunchalari bilan aloqadorligi tadqiq etilgan. M.Z.Ziyodullayev, A.I.Sapojnikov, A.V.Gotovsev, A.F.Joldasov, Sh.Paxrutdinov, I.R.Alijonov, D.A.Korotchenkov, A.V.Kudelichlarning ilmiy hamda MDHga a‘zo davlatlar va milliy qonunchiligimizdagi huquqiy yondashuvlarga asoslanib, “*jamoat xavfsizligi*” – bu ijtimoiy-huquqiy tushuncha, biroq u “*faoliyat*” emas, balki “*himoyalanganlik holati*”dir, deb xulosa qilingan.

Bu borada MDHga a‘zo davlatlarning huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir qonunchiligi va ilmiy adabiyotlarni tahlil qilib hamda I.E.Velikoselskaya, O.V.Filimonov, A.G.Lekar, A.F.Zelinskiy, Ye.Alauxanov, A.A.Savchenko, N.S.Salayev, M.Usmonaliyev, Y.M.Karakterov, G.A.Avanesov, Z.S.Zaripov, Y.S.Pulatov, Q.R.Abdurasulova kabi olimlar bilan ilmiy munozaraga kirishib, “huquqbuzarliklar profilaktikasi” – bu “faoliyat”, “huquqbuzarliklarning oldini olish” esa ushbu faoliyatdan ko‘zlangan “maqsad”, deb xulosaga kelingan. Va ushbu xulosa, milliy qonunchilik hujjatlari bilan asoslab berilgan.

Huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir masalalar (muammolar) Buyuk Britaniyada Richard Wells, John Thompson, John Croft, Hough, Mike va Roberts, J.V.Jacobson, Jessica, Skrine, Oonagh, Kirby, Amy va Hunter, Gillian; huquqbuzarliklarning oldini olishga doir virtual kriminologik tadqiqotlar GFRda Jean-Louis van Gelder, Daniel Nagin, Timothy Barnum tomonidan o‘rganilgan.

Demak, huquqbuzarlik - huquq va muomala layoqatiga ega subyekt tomonidan sodir etiladigan, huquq normalari talablariga zid keluvchi hamda shaxsga, mulkka, davlatga va butun jamiyatga zarar keltiruvchi ijtimoiy xavfli qilmish. O‘z xususiyatiga ko‘ra, huquqbuzarlik jinoyat, nojo‘ya harakat, intizomni buzish shaklida bo‘ladi. Ko‘p hollarda huquqbuzarlik qonunbuzarlik so‘zi bilan bir xilda ishlatiladi. Fuqaroviy huquqbuzarlik (shaxsga, fuqaro yoki tashkilotning mulkiga ziyon yetkazish), ma‘muriy huquqbuzarlik (mas, mayda bezoriylik, yo‘l

harakati qoidasini buzish), intizomiy huquqbuzorlik (nojo‘ya harakat, mas, ishga kelmaslik, kech qolish) farqlanadi. Huquqbuzarlikning eng xavfli ko‘rinishi jinoyatdir. Huquqbuzarlik uchun qonunda tegishli fuqaroviy, ma‘muriy, intizomiy va jinoiy javobgarlik belgilangan⁷¹.

Shaxslar ma‘lum huquqiy qoidalarga, huquq normalariga amal qiladilar. Bu qoidalarga amalqilmaslik, o‘rnatilgan huquqiy normalarning buzilishiga olib keladi.

Yoshlar orasida huquqbuzarliklarning dastlabki sabablari oila muhitidagi muammolar, do‘stlar ta’siri va ijtimoiy izolyatsiya sifatida ko‘rinadi. Respondentlarning aksariyati, oila muhitining qoniqarsizligi va ota-onalar o‘rtasidagi nizolarni huquqbuzarliklar uchun asosiy omil sifatida ta’kidladilar. Bu, oila va ta’lim jarayonlarida ishlash zarurligini ko‘rsatadi. Ta’lim dasturlarining samaradorligi ham tadqiqotda muhim ahamiyatga ega. Respondentlarning ko‘pchiligi, huquqiy bilimlarni oshirishga qaratilgan ta’lim dasturlarini samarali deb hisoblaydi, lekin ushbu dasturlar ko‘pincha qiziqarli va motivatsiyalovchi emasligi haqida fikrlar bildirildi. Bu, ta’lim tizimining yangilanishi va innovatsion yondashuvlarni qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi.

Ijtimoiy muhit va do‘stlar ta’siri ham huquqbuzarliklarning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqot natijalari, yoshlarning do‘stlari va ijtimoiy muhitning ularning xulq-atvoriga ta’sirini ko‘rsatadi. Respondentlarning 70% ijtimoiy muhit va do‘stlar ta’sirini huquqbuzarliklar bilan bog‘liq muammolarda asosiy omil sifatida ko‘radi. Bu, yoshlarni ijtimoiy faoliyatga jalb qilish va ijtimoiy loyihalar orqali ularning ijtimoiy mas‘uliyatini oshirish zarurligini ko‘rsatadi.

Oila muhitining ta’siri ham tadqiqotda alohida ta’kidlandi. Oila muhitining qoniqarsizligi, ota-onalar bilan muloqotning yetishmasligi va oiladagi qiyin vaziyatlar huquqbuzarliklarni kuchaytirishi mumkin. Shuning uchun, ota-onalar uchun ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirish zarur. Ota-onalarning ta’lim jarayoniga jalb etilishi, yoshlarning ijtimoiy mas‘uliyatini oshirishga yordam beradi. Yoshlarning ijtimoiy mas‘uliyatini oshirishga qaratilgan dasturlarning ahamiyati tadqiqotda ko‘rsatildi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari, yoshlar orasida huquqbuzarliklarni oldini olishda ko‘p qirrali yondashuvlar zarurligini ta’kidlaydi. Oila, ta’lim va ijtimoiy muhitning o‘zaro ta’siri, huquqbuzarliklarni oldini olishda muhim omil sifatida ko‘riladi. Ta’lim tizimining yangilanishi, ijtimoiy muhitning yaxshilanishi va oila muhitining ahamiyatini oshirish orqali yoshlar orasida huquqbuzarliklarni oldini olishda samarali strategiyalar ishlab chiqish mumkin.

Natijada, tadqiqot, yoshlar orasida huquqbuzarliklarni oldini olishda ta’limning ahamiyatini ko‘rsatadi va yangi yondashuvlar, strategiyalar va dasturlarni ishlab chiqish yo‘lida muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu, nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga yordam beradi. Shunday qilib, tadqiqot natijalari, kelajak avlodni huquqbuzarliklardan himoya qilish va jamiyatning barqarorligini ta’minlash yo‘lida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Ta’lim jarayonida yangi yondashuvlar va innovatsion

⁷¹ Maxkamov U.I, Ismoilova D.M. Allomalar merosi milliy tarbiya asosi. “Xalq ta’limi”. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali. ISSN 2181-7839 1-son, 2021-yil yanvar-fevral.

strategiyalarni amalga oshirish, yoshlar orasida ijtimoiy mas’uliyatni oshirish va huquqbuzarliklarni oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do‘stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza // Xalqso‘zi. – 2018. – 8 dekabr.
2. Corruption costs developing countries \$1.26 trillion every year - yet half of EMEA think it's acceptable // <https://www.weforum.org/agenda/2019/12/corruption-global-problem-statistics-cost/> (murojaat vaqti: 30.10.2022).
3. Djumaeva S. Ijtimoiy va pedagogik nizolar: mohiyati va bartaraf etish yo‘llari. Metodik qo‘llanma. – T., 2011.
4. Egamberdiyeva N.M. Ijtimoiy pedagogika. - T.: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.
5. Jumayev R.Z. Konfliktologiya asoslari, asosiy tushuncha va tamoyillari. O‘quv qo‘llanma, 2015.
6. Maxkamov U.I, Ismoilova D.M. Allomalar merosi milliy tarbiya asosi. “Xalq ta’limi”. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali. ISSN 2181-7839 1-son, 2021-yil yanvar-fevral.
7. Odam savdosi – asr muammosi // URL: <http://muslim.uz/index.php/maqolalar/item1767-odam-savdosi-asrmuammosi/>.
8. Axmedova M.T. Pedagogik konfliktologiya. O‘quv qo‘llanma. - Adabiyot uchqunlari, 2017 yil.
9. Уровень преступности в мире// URL: <https://visasam.ru/emigration/vybor/prestupnost-v-mire.html>.